



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

HARBIY XIZMATCHILARDA METAKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK PREDIKTORLARI

Alimardonov Zoxid Shukurillayevich

Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrası
boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Zamonaviy harbiy psixologiya kontekstida metakommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish shaxsning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda metakommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik prediktorlar emotsional intellekt, refleksiya, kommunikativ moslashuvchanlik va stressga bardoshlilik kabi omillar tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori metakommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy signal va kontekstni chuqurroq idrok etadi, muloqot jarayonini tahlil qilish va boshqarishda yuqori refleksiv darajaga ega bo'ladi. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish harbiy xizmatchilarning stressga bardoshlilikini, jamoada samarali o'zaro ta'sirni va psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metakommunikativ kompetensiya, psixologik prediktorlar, emotsional intellekt, refleksiya, kommunikativ moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, harbiy psixologiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТАКОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация: В современной военной психологии формирование метакоммуникативных компетенций рассматривается как один из ключевых факторов, обеспечивающих социально-психологическую устойчивость личности военнослужащего. В статье анализируются психологические предикторы развития метакоммуникативной компетенции эмоциональный интеллект, рефлексия, коммуникативная гибкость и стрессоустойчивость. Результаты показывают, что военнослужащие с высоким уровнем метакоммуникативной компетенции глубже воспринимают социальные сигналы и контексты, проявляют более высокий уровень рефлексии и эффективнее управляют коммуникацией в стрессовых условиях. Развитие данных компетенций способствует укреплению психологической устойчивости, командного взаимодействия и информационно-психологической безопасности.

Ключевые слова: метакоммуникативная компетенция, психологические предикторы, эмоциональный интеллект, рефлексия, коммуникативная гибкость, стрессоустойчивость, военная психология.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

PSYCHOLOGICAL PREDICTORS OF THE FORMATION OF METACOMMUNICATIVE COMPETENCIES IN MILITARY PERSONNEL

Abstract: *In contemporary military psychology, the development of metacommunicative competencies is considered a key determinant of service members' socio-psychological resilience. This article examines the psychological predictors that contribute to the formation of metacommunicative competence including emotional intelligence, reflection, communicative flexibility, and stress tolerance. The findings reveal that military personnel with high levels of metacommunicative competence demonstrate a deeper perception of social cues and contexts, higher levels of reflection, and more effective communication management under stress. Strengthening these competencies enhances psychological stability, teamwork effectiveness, and overall information-psychological security in the military environment.*

Keywords: *metacommunicative competence, psychological predictors, emotional intelligence, reflection, communicative flexibility, stress tolerance, military psychology.*

Kompetensiya va kompetensiyalar insonning tanlagan faoliyat sohasi bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beruvchi kompleks psixologik-ijtimoiy omillar sifatida talqin etiladi.

D.I.Ushakovning izohli lug'atida "kompetensiya" atamasi "xabardorlik" ma'nosida, "kompetensiyalar" esa shaxsning bilim, tajriba va texnik topshiriqlarni hal etishdagi imkoniyatlarini aks ettiruvchi ko'p qirrali to'plam sifatida izohlangan [3].

Psixologiya fanida bu tushuncha sohaga oid psixologik bilimlarga egalik, moslashuvchanlik va o'z faoliyatini adekvat boshqarish qobiliyati sifatida qo'llaniladi. J.Raven kompetensiyani shaxsning muayyan predmet sohasi doirasida faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlar, fikrlash usullari, ko'nikmalar hamda o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z ichiga olgan kompleks qobiliyat sifatida tavsiflaydi [4].

Turli olimlar kompetensiya tushunchasiga nisbatan turlicha yondashganlar. S.G.Vershlovskiy va Yu.N.Kulyutkin uni shaxsiy sifat sifatida, V.Yu. Krichevskiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyati sifatida, V.A. Slastenin esa kommunikativ, konstruktiv va tashkilotchilik kompetensiyalari majmui sifatida izohlagan. L.I.Panarin kompetensiyani ijtimoiy va texnik faoliyat tizimida namoyon bo'luvchi ixtisoslashgan bilimlar majmui deb belgilaydi. Zimnyaya esa bu tushunchani "bilimga egalik va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyati" sifatida ta'riflagan [5].

M.A.Choshanov kompetensiyani quyidagi belgilovchi xususiyatlar orqali tavsiflaydi: bilimlarning harakatchanligi (operatsion va mobil bilim), usullarni moslashuvchan qo'llay bilish, turli yechimlar orasidan eng samaralisini tanlay olish hamda mavjud yechimlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish qobiliyati [1].

Kompetentlilik esa nafaqat bilim va ko'nikmalarga egalikni, balki ijtimoiy me'yorlar, qadriyat yo'nalishlarini anglash, kasbiy o'zini rivojlantirish va ijodiy salohiyatni amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, kompetensiya shaxsning bilim,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ko'nikma va malakalari majmui bo'lib, har qanday muammoli vaziyatda samarali yechim topish mahoratini anglatadi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetensiyalar" atamallari ko'pincha sinonimik tarzda ishlatiladi, ayniqsa ta'lim jarayonini modernizatsiyalash kontekstida. UNESCO konsepsiyasiga ko'ra, kompetensiyalarning asosiy atributlari quyidagilardan iborat: mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, madaniyatlararo bag'rikenglik, samarali yozma va og'zaki muloqot, yangi texnologiyalarni egallash va hayot davomida o'rganish qobiliyati.

Metakommunikativ kompetensiya kommunikatsiya jarayonini boshqarish, ya'ni "kommunikatsiya haqidagi kommunikatsiya"ni amalga oshirish qobiliyati bo'lib, u ijtimoiy-kommunikativ va psixologik kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nonverbal va paraverbal elementlar orqali muloqotni boshqarish, o'zaro ta'sirni tartibga solish va ma'lumot almashinuvining samaradorligini ta'minlashni o'z ichiga oladi [8].

Metakommunikativ kompetensiyaning asosiy ijtimoiy-psixologik atributlari:

1. Empatiya va emotsional intellekt – boshqalarning hissiy holatini to'g'ri talqin qilish va mos javob bera olish.

2. Non-verbal signallarni anglash – mimika, jest va ovoz ohangi orqali yashirin ma'nolarni sezish, xavfli vaziyatlarni oldindan baholash.

3. Kommunikativ refleksiya – muloqot jarayonini o'z-o'zini tahlil qilish va tuzatish qobiliyati.

4. Konfliktlarni boshqarishdagi psixologik moslashuv – stressli sharoitlarda muloqotni barqaror saqlash va ijtimoiy muvozanatni tiklash.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligida muloqotning o'rni strategik ahamiyatga ega. U nafaqat jangovar samaradorlikni oshiradi, balki jamoaviy ruh, o'zaro ishonch va psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Harbiy psixologiyada muloqot shaxsning ijtimoiylashuvi, professional o'sishi va emotsional muvozanatini ta'minlovchi asosiy psixologik mexanizm sifatida qaraladi. Bo'lajak ofitserlar uchun metakommunikativ kompetensiya quyidagi ko'nikmalarni qamrab oladi:

- buyruq va signallarning psixologik ma'nosini anglash;
- bo'ysunuvchilarning hissiy reaksiyalarini oldindan baholash;
- yashirin kommunikativ signallarni tahlil qilish;
- axborot oqimini tartibga solish va kommunikativ shovqinlarni bartaraf etish;
- ekstremal vaziyatlarda muloqotni boshqarish [6].

Tomasning "Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarini aniqlash" metodikasining tavsiflovchi ko'rsatkichlariga binoan, raqobatlilik ($Z=2,5$; $p<0,01$), hamkorlik ($Z=2,7$; $p<0,01$), murosallilik ($Z=3,4$; $p<0,01$), tortishuvdan qochish ($Z=2,9$; $p<0,01$) hamda moslashuvchanlik ($Z=2,8$; $p<0,01$) shkalalarining barchasi normal taqsimlanish qonuniyatiga mos kelmagani bois, noparametrik mezonlarda ifodalanishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, metodikadan o'rin olgan ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari solishtirilganda raqobatlilik (6,85), hamkorlik (6,69), murosallilik (6,14), tortishuvdan qochish (6,45) hamda moslashuvchanlik (6,36) shkalalaridan raqobatlilikda ustun natija qayd etilganini kuzatish mumkin. bundan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ma'lum bo'ladiki, bo'lajak ofitserlarda nizoli vaziyatlarda hamda muloqot jarayonida suhbatdoshni anglash asosan u bilan ma'lumot almashishdagi raqobat, ko'proq information dalil keltirish zaruratidan kelib chiqar ekan. Shuningdek, muhosililik ko'rsatkichi bo'yicha nisbatan past ballar bo'lajak ofitserlardagi yengilmaslik, idoraviy chidamlilik natijasida doim "oxirigacha borish" prinsipining kommunikativ strategiyalarga to'la tatbiq etilganining natijasi sifatida baholanishiga imkon beradi. Raqobatlilik shkalasida eng yuqori o'rtacha qiymat qayd etilgani bo'lajak ofitserlarning nizoli vaziyatlarda faol, tashabbuskor va dominant pozitsiyani egallashga moyilligini ko'rsatadi. Ushbu natija shaxsning "men-pozitsiyasi" yuqoriligi, o'z fikrini qat'iy himoya qilish va kommunikativ ustunlikka intilish xususiyatlari bilan izohlanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan bu strategiya metakommunikativ kompetensiyaning irodaviy komponenti bilan uzviy bog'liqdir. Raqobatlilik, bir tomondan, harbiy kasb egalari uchun zarur bo'lgan barqaror qaror qabul qilish, mas'uliyatli liderlik va stressbardoshlikni ifodalasa, ikkinchi tomondan, haddan tashqari raqobatga intilish emotsional empatiya va ijtimoiy tinglash qobiliyatini cheklashi mumkin. Shu sababli metakommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishda ushbu ko'rsatkich bo'yicha samarali muloqot chegaralarini aniqlash va o'zaro hurmat asosida fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik ko'rsatkichi bo'lajak ofitserlarning o'zaro kelishuvga intilishi, jamoa manfaatlarini shaxsiy pozitsiyadan ustun qo'yishga moyilligini anglatadi. Bu strategiya konstruktiv nizoni boshqarish va o'zaro anglashuvni rivojlantirishga yo'naltirilgan kommunikativ madaniyat mavjudligidan dalolat beradi.

Tomas metodikasi natijalari bo'yicha aniqlangan psixologik xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ofitserlarda raqobatlilik va hamkorlik strategiyalari ustun, bu esa ularning faol, tashabbuskor va jamoaviy muloqotga moyil ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, muhosililik, qochish va moslashuvchanlik strategiyalarida metakommunikativ refleksiya, o'zaro tinglash va hissiy tahlil ko'nikmalarini yanada rivojlantirish talab etiladi. Metakommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda asosiy vazifa kommunikativ qat'iyatni ijtimoiy empatiya va refleksiv anglash bilan uyg'unlashtirishdir. Shu orqali bo'lajak ofitserlar nafaqat buyruq beruvchi, balki axborotni anglay oluvchi, tahlil qiluvchi va ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi yetakchi shaxs sifatida kamol topadilar.

Shu bois, harbiy kommunikatsiyada metakommunikativ kompetensiya xatoliklarni kamaytirish, psixologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy intizomni mustahkamlash uchun zaruriy shartdir [7]. Metakommunikatsiya, G.Beytson ta'riflaganidek, inson tafakkurining "anglashni anglash" bosqichi bo'lib, shaxs o'z fikrining ta'siri va ma'nosini tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Falsafiy nuqtayi nazardan u germeneytik refleksiya jarayonining markazida turadi. Siyosiy muloqotda esa metakommunikativ kompetensiya liderning ijtimoiy kontekstni "o'qish", jamiyat kayfiyatini sezish va kommunikativ diskursni boshqarish qobiliyatini bildiradi. So'zning o'zi emas, balki uning metama'nosi ohang, pauza, imo, ramz va kontekst orqali uzatilgan ijtimoiy signal siyosiy kommunikatsiyaning asosiy quroli hisoblanadi. Demak, metakommunikativ kompetensiya shaxsni oddiy axborot



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

iste'molchidan anglovchi va ma'no yaratuvchi subyektga aylantiradi. Harbiy-siyosiy kontekstda esa u strategik liderlik, axborot xavfsizligi va psixologik barqarorlikning tayanch komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Filipović L. Evidence-gathering in police interviews: Communication problems and possible solutions. *Pragmatics and Society*, 10(1), 74-98.
2. Whiteside R.D. Peering into US Army media, information, and data literacy fundamentals against malign information in the open information environment: A qualitative case study [Doctoral dissertation, ProQuest Dissertations and Theses Global]. ProQuest.
3. Pratt S.M. Dialectic tensions and role negotiation: Experiences of post-deployment among married military mothers [Master's thesis, Kansas State University].
4. Yip A. Hypermapping conflict: War, art and immersive aesthetics. *Australian and New Zealand Journal of Art*, 20(1), 64-82.
5. Berkowitz R., Heimann G., & Kampf Z. (2024). Performing good diplomatic relations: The case of presidential introductory conversations during credential ceremonies. *Journal of Pragmatics*, 222, 1-15.
6. Collin W. "It was probably that guy?"—The functions of reconstructive speech acts in investigative training interviews. *Scandinavian Studies in Language*, 11(1), 1-23.
7. Щербакова И.О., & Стринюк С.А. Сущность и структура профессиональной компетентности преподавателя английского языка в морском университете [The essence and structure of the professional competence of an English language teacher in a maritime university]. *Методики преподавания в высшей школе* [Methods of teaching in higher education].
8. Chadee M., Chadee D., & Kostić A. Investigative interviewing: Implications for nonverbal behaviour. In A. Kostić & D. Chadee (Eds.), *Body language communication* (pp. 1-20).